OILADA OTA-ONALAR O‘RTASIDAGI SALBIY MUNOSABATLARNING BOLA TARBIYASIGA TA’SIRINI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARGA ASOSLANGAN SAMARALI USULLARI.

Oripova A’lo O‘ktam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi.
e-mail: Oripovaalojon@gmail.com
Mirsaidova Madina O‘tkir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: Mirsaidovamadina@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada bola tarbiyasida oilaviy qadriyatlarning ahamiyati, ta’siri hamda, ajrimning bolaga salbiy ta’sirlari o‘rganilib uni bartaraf etish, oilaning muqaddas qadriyatlarini yosh avlodlarda shakllantirish usullarini ishlab chiqish, targ‘ib qilish va amalga oshirish yo‘llari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, shaxs, ta’lim, tarbiya, xorijiy tajriba, ajirim.

Abstract: This article examines the importance and influence of family values in raising a child, as well as the negative effects of divorce on the child, and discusses ways to eliminate it, develop, promote and implement methods for forming the sacred values of the family in younger generations.

Keywords: Family, society, individual, education, upbringing, foreign experience, my work.

Oila jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Oila, farzand, ota-ona kabi so‘zlarni eshitganimizda bizda o‘zgacha his-tuyg‘u va ijobiy fizkrlar o‘z o‘zidan hayolimizga keladi, lekin shunday ijobiy fikrlar orasida ota-onalar munosabatida turli dilxiraliklar, kelishmovchiliklar tushunmovchiliklar hamda eng yomoni ajirim degan salbiy fikrlar ham aylanadi. Oila qurishdan maqsad inson o‘zi tanlagan inson bilan havas qilarli, boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan, jamiyatga nafi tegadigan farzand tabiyalab voyaga yetkazishdir. Lekin bazi bir yoshlar oilaning tub mohiyatiga yetmasdan, hayotning baland-u pastlariga chiday olmasdan to‘g‘ri yechim deya ajirimlar sonini ko‘paytirayaptilar. Ajirimdan kimdir foyda ko‘radi deb hech kim ayta olmaydi va zarar

ko‘ruvchilar faqatgina norasida bolalar va ularing kelajak hayotidir. Ajirim bugungi kunda ko‘p eshitayotgan so‘zlarimizdan biri bo‘lib qoldi va bu mavzuning eng achinarli tomoni farzandli oilalarning ajrashayotganligidir. Ajirimlar sonining ko‘payishi yildan yilga oshib bormoqda va bunga sabab deb quyidagilarni keltirish mumkin: erta turmush, yoshlarning hayotga sayoz qarashi, yengil hayot tarziga o‘rganib qolishlari, ayniqsa oilada, ta’lim tashkilotlarida, oilaning sof qadriyatlarini tushunib anglab yetishda yetarlicha ta’lim va tarbiya olmayotganligida deb hisoblash mumkin.

Ko‘pchilk insonlar oxirgi paytlarda farzandim qiynalmasin, yaxshi yashasin deya farzandlari uchun yaxshi sharoit yaratishga intilishadi. Bu yaxshi albatta lekin bola hayoti davomida bir qancha hayotiy saboqlarni oilasidan, ustozlaridan olmasa o‘rganmasa, ular oila, ota-ona, farzand qadriga yetmaydilar va oiladagi bir muncha qiyinchiliklar va tushunmovchiliklarning yechimini osongina ajrimda ko‘rishadilar. Ajirim nafaqat kattalar hayotiga ayniqsa yosh avlodlar hayotiga ham chang soladi. Ajirimdan eng birinchi farzand tarbiyasiga dars ketadi. Masalan: bolaning psixologiyasi, tarbiyasi, xulq atvori, dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilishi va bola asabiy bo‘lib qolishi yoki ayni o‘smirlik paytida ongidagi bo‘shliqlar oila, ota-ona, farzand haqida notog‘ri fikr va dunyoqarashga to‘lib qolishi va hayotga umidsiz, negativ, salbiy jihatdan qarab turli yomon yo‘llarga kirib ketishi kabi xolatlar haqiqat bo‘lishi turgan gap.

Xalqimiz orasida “qush uyasida ko‘rganini qiladi” deyilganidek bolalar har qanday xatti harakatni oilasidagi muhitdan o‘rganadi. Oilada farzandlar ota-onaning ko‘zgusi ekanligi, bolalarni tarbiyalashda oilaning qanchalik darajada muhim ekanligini ham yoshligidan singdirib borishlari va bolalarga tarbiya berishda avvalo ota-onalar bolaga o‘rnak bo‘la oladigan bo‘lishlari kerak chunki bolalarning hayolida ularning “ideali” o‘z ota-onalaridir. Bolalarga oilaning qanchalik muhim ekanligini birinchi oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida so‘ng maktabda va boshqa jabhalarda o‘rgatib borishimiz mumkin. Biz maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab bolalarga mehnat qilishni, kattalar mehnatiga hurmatni, qiyinchiliklardan sabr va bardosh bilan o‘tishni o‘rgata olsak albatta bolalar oilaparvar inson bo‘lib yetishadilar. Masalan: dunyo bo‘yicha ajirimlar soni eng kam bo‘lgan davlat Hindistonda maktabgacha va maktab ta’lim tizimida ko‘proq bolalarni mehnatga o‘rgatish, boshqalar mehnatiga hurmatda bo‘lishni, oilaning muqqaddas ekanligini hayotiy bilimlar asosida o‘rgatilib borilar ekan. Ularda xatto ta’sis etilgan institutlarning mutaxassisliklari ko‘pincha kasbiy ta’limga yordam berishga qaratilgan. Maktab tizimidagi ta’lim va tarbiya esa bolalar o‘zilari qiziqgan va tanlagan kasbni egallash ko‘nikmalarini shakllanishiga qaratilgan .

Oilaning qanchalik mustahkamligi oila deb atalmish qo‘rg‘onni barpo etgan ota-onaning yaratgan muhiti, go‘zal qadriyatlarni saqlab uni o‘z farzandiga o‘rgata olishidadir va oilani qanday boshqarish va qanday asrab avaylash bolaga berilgan yaxshi ta’lim va tarbiya orqali singdirilib boradi. Oxirgi yillarda ajrim soning ko‘payishi, ota-onalar o‘rtasidagi mojarolar kelajak yosh avlodning katta qismini salbiy ruhda tarbiyalanishiga sabab bo‘lmoqda. Buning uchun bir qancha tadbir va targ‘ibot ishlarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Avvalo bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni benihoya kattadir. Ota-ona tomonidan farzandiga berilishi lozim bo‘lgan narsalar quyidagilardir: yetarli darajada mehr-muhabbat, intizom, ta’lim va chidam, sabr-toqat. Sevgi-ona, ishonch-otadir. Bola sevgi va mehr shavqatni onasidan olmog‘i lozim. Bola tarbiyalash turmush qurishdan oldin yani yaxshi turmush o‘rtoq tanlashdan boshlanadi va xomiladorlik bilan davom etadi. Ona hali xomilador ekanligidayoq bolani kitob o‘qishga odatlantirishi mumkin, u kitobni ovoz chiqarib o‘qisa, qornidagi bola uni tinglaydi.

Aslida bola ota-ona ko‘zgusi hisoblanadi. Ya’ni muommoli bola yo‘q muommoli ota-ona bor. Agar siz yaxshi bo‘lsangiz bolangiz ham yanada a’lo bo‘ladi. Farzand tarbiyasida bee’tiborlik qilish yaramaydi. Ota-onalar bola tarbiyalar ekan uch asosiy tamoyilga rioya etmog‘i lozim. Bular o‘rgatish, takrorlash, taqdirlash. Bu uch tamoyillar chambarchas olib borilsa bola hayotda o‘z o‘rnini topadi va qiyinchiliklarga to‘g‘ri yo‘l bilan yechim topa oladigan farzand bo‘lib yetishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oila pedagogikasi / o‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2023.
2. Go‘daklikdan yigitlikka qadar. Sheniz Yujel.– Yangi asr avlodi: 2021

3. Arapbayeva Д.К., Arapbayeva V.K. Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari. Zamonaviy ta’lim. 2015.

4. Xidirova F.F. Oila pedagogikasi. Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.

5. https://kun.uz/news/2022/03/03/ Xronika: Mahalla, oila va xotin-qizlar bo‘yicha tashkilotlarning 30 yillik silsilasi.

6. https://yuz.uz/news/ Oila – hayotning abadiyligini ta’minlovchi muqaddas maskan.